

qismidir. Shunday qilib, madaniyatdagi asosiy qadriyatlar “sog'liq”, “hayot”, “aql”, “mehnat” va boshqalar hisoblanadi. Bunday qadriyatlar bir qadriyatni bildiradi-gan, so'ngra u orqali boshqasini belgilaydigan paremalar larda aks etishi mumkin. Masalan: “A sound mind in a sound body” (Sog' tanda sog'lom aql). Bu maqolda “sog'liq” tushunchasi ham, “aqliy qobiliyat” tushunchasi ham tasvirlangan hamda uning ma'nosi ham o'z ifodasini topgan. Bu shundan darak beradiki, paremalar dun-yoning milliy manzarasini aks ettiruvchi, shuningdek, madaniy qadriyatlar xarakteristikasi va nominatsiyasi-ga mas'ul bo'lgan asosiy tushuncha vakillari orasida muhim o'r'in tutadi.

Insonning hayoti, odatlari, xarakteri, tashqi ko'ri-nishi, uning tana a'zolari ham dunyoning paremiologik manzarasida ifodalanadi. O'z tabiatiga ko'ra, paremaling ma'noviy tuzilishi axborot berishdan ko'ra ko'proq ibratlidir. Dunyoning paremiologik manzarasi deganda hayot qonunlari va inson jamiyati qonunlari, insonning axloqiy qadriyatları va odatlari haqidagi universal qarashlar tizimining aksi tushuniladi.

Paremiologik birliliklarning quyidagi turlari mavjud:

- maqol va matallar; shuni ta'kidlash kerakki, G.A.Permyakovning nazariy ishlarida bu tushunchalar farqlanadi. Uning ta'kidlashicha, “Maqol – gramma-

tik jihatdan tugallangan (gap shakliga ega) umumiy ma'nodagi obrazli, ya'ni kengroq izoh talab qiladigan ibora” [1: 17]. Matal deganda esa biror hayotiy hodisani aniq belgilaydigan umumqabul qilingan obrazli ibora tushuniladi. Matallar bevosita axloqiy ma'noga ega emas va biror hodisaning obrazli ta'rifi bilan cheklangan bo'lib, ular maqollardan shunisi bilan farq qiladi.

- vallerizmlar; ushbu tushuncha ostida, odatda, mulifli mavjud ma'lum bir turdag'i fikr, shuningdek, ushbu fikr aytilgan vaziyat yoki holatlarning tavsifi tushuniladi.

- shiorlar; shior deganda faoliyat yoki xatti-harakatlardagi asosiy va yetakchi fikrni ifodalovchi bir yoki bir nechta so'zlardan iborat qisqa iboralar tushuniladi;

- aforizmlar; ular teran va tugal fikrni o'z ichiga ol-gan, aniq ifodalanganligi va hukmning kutilmaganligi bilan ajralib turadigan qisqacha asl so'zlarni bildiradi.

Xulosa sifatida shuni ta'kidlash mumkinki, har qanday xalqning ruhi, donishmandligi paremalarda namoyon bo'ladi. Muayyan bir xalqning paremalari haqida bilimga ega bo'lish ularning turmush tarzi, tafakkuri, umuman tilini tushunishga yordam beradi, chunki ular-da tarixan xalq tajribasi, g'oyalari va madaniyati aks etadi. Paremalar nutqni odatdagidan boshqacharoq, ifodali va o'ziga xos qiladi.

Foydalilanigan adabiyyotlar

1. Пермяков Г.Л. Основы структурной паремиологии. – Москва, 1988.
2. Жуков В.П. Об устойчивости и вариантности на семантическом уровне / Материалы межвузовского симпозиума «Проблемы устойчивости и вариантности фразеологических единиц», ТГПИ, 1972.

G'ułomjon ATADJANOV,

Chirchiq davlat pedagogika universiteti O'zbek
adabiyyotshunosligi kafedrası o'qituvchisi

BEVOSITA TARJIMADA MAQOLLARNING BERILISHI VA MILLIY RUHNI SAQLAB QOLISH MUAMMOSI

(Kengesboy Karimovning “Og'abiy” romani tarjimasi misolida)

Maqol, matal, idiomatik iboralar aniq ma'nodagi o'z muqobillariga qaraganda obrazli xarakteri, majoziy ma'no tashishi bilan ustun turadi. “Maqol, matal, idiomatik iboralar tarjimasida, asosan, uch xil usul hukm suradi:

1) asl nusxadagi frazeologizmlar tarjima tilidan teng qiymatli muqobillarni qidirib topish:

2) asar o'girilayotgan tildan monand variantlar topib qo'yish:

3) frazeologizmlarni aynan so'zma-so'z tarjima qiliш:

Har uchala holda ham to'g'ri kelmaganda tarjimon uning umumiy ma'nosini umumiylashtirishga majbur bo'ladi” [1: 120–121]. Tarjimon asliyatdan tarjima qilar ekan, o'sha tilni, o'sha tildagi maqol, matal, hikamli so'z va frazeologik birliliklarni bilishi zarur. Chunki, har qanday badiiy asar tilini sermazmun va ta'sirchan qiladigan uslubiy vositalardan biri, shubhasiz, ibora, maqol va matallardan foydalinishdir. “Qoraqalpoq va o'zbek tillari qardosh tillar oilasiga kiradi. Ular o'zaro bir hududda joylashganligi, milliy va madaniy xususiyatlarining ya-qinligi bois ikkala tilda o'xshashlik va yaqinlik kuchlidir”

[2: 17]. Tarjimon maqol va matallarga muqobil so'z topa olishi, tarjimada maqollarning milliy ruhini saqlab qolishi, eng asosiysi, to'g'ri ekvivalent tanlay olishi zarur. Maqollar axloqiy qimmatga ega bo'lib, ularda fikr obrazli va aniq ifodalananadi. Oq'abiy romanida 100 dan ortiq maqol va matallar, frazeologik birliklar mavjud. "Har bir tarjimon asarning umumiy ruhidan kelib chiqqan holda ish tutmog'i lozim. Bunda tarjimon o'zi tarjima qilayotgan asarning tilinigina emas, o'sha xalqqa xos xususiyatlarni, xalq tilida ishlataladigan so'z, ibora, maqol va matallarni, asar yaratilgan davrni, yozuvchining dunyoqarashi va u mansub bo'lgan adabiy oqimni bilishi, tarjimada uni aks ettira olishi kerak" [3: 209]. Qoraqalpoq tili o'zbek tiliga yaqin bo'lganligi bois maqol va matallarida mazmun jihatdan deyarli farq yo'q, ammo ba'zi joylarida maqollar noto'g'ri tarjima qilingan yoki tarjima jarayonida tushib qolgan holatlarni ham ko'rishimiz mumkin.

Asliyatda: "Қашқан да алла дейди, құйған да алла дейди" [4: 25]. Ushbu maqolni tarjimon o'zbek tiliga "Qochgan ham Xudo deydi, quvgan ham." [5] deb o'giradi. Bu maqol o'zbek tilida ham shunday aytildi, shuning uchun so'zma-so'z tarjima qilgan deyishdan yiroqmiz. Sababi o'zbek tilida qo'llaniladigan maqollar qoraqalpoq tilida ham ko'p qo'llaniladi. Mana shu va boshqa maqollarda faqat fonetik jihatdangina farq qildi. Ma'no va mazmunan bir xil.

Asliyatdagi "Кепин кийген келмес, кебенек кийгеннен умит бар" [4: 150] maqolini mutarjim "Kafan kiygan kelmas, kebenek kiygandan umid bor" deb tarjima qiladi. "Kebenek" o'rniga "kebanak" so'zi qo'llangan-da ham to'g'ri bo'lar edi. "Kebanak" so'zi umumturkiy so'z hisoblanadi. Ushbu milliy realiya chakmon, yengil paxtasi kamroq chopon ma'nolarini anglatadi, demak mutarjim bu so'zni ham o'rini va to'g'ri qo'llagan. Shuni ham aytib o'tish kerakki, bu so'z Alpomish dostonida ham qo'llangan. "Yozuvchi o'z tilida mavjud bo'lgan maqol, matallardan foydalanan ekan, uning maqsadi asarning tilini boyitish, badiiy qimmatini oshirish va boy mazmunini qisqa, aniq shaklda berishdan iborat. "Maqollar struktura va semantik nuqtayi nazardan yaq-qol ko'zga tashlanib turganligi sababli ularni boshqa frazeogik birikmalardan farqlash qiyin emas", deydi E.Normamedov "Maqol, matal va idiomatik birikmalar tarjimasining ba'zi masalalari" nomli maqolasida. U, shuningdek, maqollarga xos quyidagi belgilarni keltirib o'tadi:


- 1) maqollar tugal fikni bevositga ifodalaydi;
- 2) so'zlar bir-biriga qofiyalanib keladi;
- 3) qarama-qarshi ma'noli so'zlar ishlataladi;
- 4) maqollar majoziy ma'noda ishlataladi;
- 5) maqollarning strukturasi ko'pincha qo'shma gap strukturasiga o'xshaydi;
- 6) maqollar kontekstda mustaqil gap yoki qo'shma gapning bir qismi sifatida keladi [6: 68–69].

"Bo'linganni bo'ri yer", "Mehmon otangdek ulug'", "Gumon imondan ayirar", "Bo'lari bo'ldi, bo'yovi sindi", "Yaxshi niyat yarim mol", "Mol mangrashguncha, odam tillashguncha" va boshqa ko'plab o'zbek tilida ham qo'llaniladigan, bir-biriga mos maqollar bor. Bu

maqollar asliyatda ham xuddi shunday beriladi. Lekin qoraqalpoq milliyligiga xos va mos "Ko'chgan yerda koso-ving qoladi", "Bosh yorilsa, bo'rk ichinda, qo'l sinsa, yeng ichinda" [5: 85], "Qizni kim so'ramaydi, qimizni kim ichmaydi" [5: 222] kabi maqollar qo'llaniladi. Bularni asliyat bilan qiyoslab ko'ramiz: "Бас жарылса бәрк ишинде, қол сынса жең ишинде", "Көшкен жерде көсөүң қалады" [4: 55–56] "Қызды ким айттырмайды, қымызды ким ишпейди" [4: 150]. Bu maqollar ham xuddi asliyatdagidek tarjima qilingan.

Maqollarda keng va teran g'oynani qisqa, ixcham shaklda ifodalash kishilarni nutqqa e'tibor berishga, talabchan bo'lishga o'rgatadi, shu bilan birga to'g'ri va mantiqiy fikrlashga yordam beradi. Har bir maqol xalqning tarixiy taraqqiyoti, urf-odati, tirikchiligi, ethnografiyasi va hayotiga bog'liq holda yaratiladi. "Muqobil tarjima qilinganda asar tili o'z jozibasi va badiiy jilosini saqlab qoladi. Tarjimada so'zning emas, ma'noning ketidan quvish kerak" [7: 257], degan edi tarjimon ustozimiz Ergash Ochilov. Biroq bu maqollar qoraqalpoq xalqida ham ko'p qo'llaniladi va aynan shu maqollar qoraqalpoq xalqining milliyligiga aylangan. Ustoz G'aybullha Salomov ta'biri bilan aytganda, paremiologik birliklarni qardosh tillardan tarjima qilganda faqtgina hijjalash asosidagi tarjima emas, balki tilda mavjud muqobil variantlardan ham o'rini foydalanish hisobiga o'girish mumkin.

Asliyatda: "Айыр болса қейтемен. "Басына муссе баспақшы боласаң" деген. Көтере бересен балам" [4: 110]. O'zbekcha tarjimada: "Og'ir bo'lsa, nimayam qillardim. "Boshingga tushsa, cho'pon bo'lasan", deyishadi. Ko'taraveraman-da, bolam [5: 165]. Qoraqalpoq xalqida boshiga ish tushsa, bundan boshqa chora yo'q bo'lsa, aynan shu maqol ishlataladi. O'zbek tilida esa "Boshga tushganni ko'z ko'rар" maqoli qo'llaniladi. Aynan shu maqolni o'zbekcha muqobil qilib olganda ham noto'g'ri bo'limas edi. Tarjimon bu maqolning o'rniga o'zbekcha muqobil variant qo'llamasdan, aynan asliyatdagi mazmunning o'zini bergan. Natijada so'zma-so'z tarjimaga tayangan holda qoraqalpoq xalqiga xos ethnografik xususiyatlarni aks ettiruvchi yangi maqol hosil qilgan. Tarjimonning yutug'i ham aynan mana shunda, ya'ni tarjima tamoyillariga maqsadli va to'g'ri yondashish. Ayni ma'noda "Frazeologik birliklar, maqol, matal – barchasi xalq ijodiyoti mahsuli bo'lib, ular xalq, millat, elatlarning turmush tarzi va hayot faoliyatini yaqqol ifodalovchi omillar bo'lib xizmat qiladi" [8: 12]. O'zbek xalqi va qoraqalpoq xalqi qardosh bo'lishiga qaramay, bu ikki xalq tili o'rtasida muayyan farqlar mavjud. Xususan, o'zbek va qoraqalpoq tillarida bir-bi-



riga aynan o'xshash bo'lgan maqollar bilan bir qatorda qisman farqlanuvchi yoki butkul farqlanuvchi maqollar, matallar ham yuzaga kelgan.

Dunyoda tilsiz xalq bo'lmagandek, maqolsiz til ham bo'lmaydi. Maqol – xalq donishmandligining mahsulidir. Xulosa o'rniда shuni aytilish mumkinki, tarjimon Rustam

Musurmon, asosan, asliyat ruhini to'g'ri aks ettira olgan. Muallif uslubini saqlab, o'z kitobxonlariga yetkaza olgan. Shuningdek, tarjimon maqollarni tarjima qilishda asliyat ruhini to'g'ri aks ettira olishi bilan birga o'zbekcha tarjimadagi maqollarda qoraqalpoq milliy ruhini saqlab qola olgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Salomov G.T . Tarjima nazariyasi asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 1983.
2. Abdullayev Sh.D. Tarjima asarlarda frazeologizmlar semantikasi. Dissertatsiya. – Toshkent, 2007.
3. Qosimova Z. Ruschadan o'zbekchaga adekvat tarjima qilish xususida // "Badiiy tarjimaning aktual masalalari" kitobi. – Toshkent: O'zbekiston SSR "Fan" nashriyoti, 1977.
4. Karimov K. "Ag'abiy" tarixiy romani. – Nukus: Bilim, 2013.
5. Karimov K. "Og'abiy" tarixiy romani. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashiryot- matbaa ijodiy uyi, 2020.
6. Normamedov E. Maqol, matal va idiomatik birikmalar tarjimasining ba'zi masalalari // "Badiiy tarjimaning aktual masalalari" kitobi. – Toshkent: O'zbekiston SSR "Fan" nashriyoti, 1977.
7. Ochilov E. Tarjimashunoslik terminlarining izohli lug'ati. – Toshkent, 2014.
8. To'xtaxo'djayeva N. Badiiy tarjimada lingvokulturemalarning ifodalaniishi. – Toshkent, 2013.



Ilg'or pedagogik texnologiyalar

Naima REJAPSOVA,

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Xorijiy tillar kafedrasи katta o'qituvchisi

KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYANI PREDMET VA TIL INTEGRATSİYALASHGAN TA'LIM YORDAMIDA SHAKLLANTIRISH

Xorijiy tillarni o'qitishda CLIL usulidan foydalanish so'nggi yillarda zamон talabiga aylanib, ommalashmoqda. CLIL qisqartmasi to'liq ochib berilsa, u ingliz tilida *Content and Language Integrated Learning* yoki o'zbek tilida predmet va til integratsiyalashgan ta'lism, yanada aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, xorijiy tilni fanlararo yaxlit bog'liqlikda o'qitish ma'nosini anglatadi. Bu metod orqali kerakli fanlar chet tilda o'qitiladi. Demak, o'rganilayotgan fan va xorijiy til ta'lism jarayonida bir butunlikni hosil qiladi. Hozirgi kunda eng keng tarqalgan ta'riflardan biri shunday: CLIL – talabalarda umumiy ta'lism ko'nikmalari va bilimlari shakllantiriladigan va rivojlantiriladigan kontekstda chet til kommunikativ va lingvistik kompetensiyalarini shakllantirish imkonini bevvuchi didaktik texnika.

CLIL atamasi 1994-yilda Devid Marsh tomonidan chet tilda o'qitiladigan fanlar o'quv jarayonlariga qo'llash uchun kiritilgan. Yevropa Ittifoqining ta'kidlashicha, predmet va til integratsiyalashgan ta'lism innovatsion uslubiy yondashuv bo'lib, u odatdagи xorijiy tillarni o'qitishdan ancha kengroqdir. U nafaqat xorijiy tilga, balki xorijiy tilga oid bo'lmagan ixtisoslik fan bo'yicha o'zlashtirishni rivojlantirishga qaratilgandir [1]. Bu metoddan ona tili darsidan tashqari barcha fanlarda samarali foydalaniladi. Shunday qilib, xorijiy til fanning obyekti emas, balki o'rganish vositasiga aylanadi.

O'qitilayotgan fanning tili va mazmuni bu metodikada asosiy ahamiyatga ega bo'lsa-da, lekin darslar asosan mazmunga katta e'tibor qaratilgan holda o'tiadi. Masalan, iqtisodiyot yo'nalishi talabalariga tabiiy resurslardan, masalan, ichimlik suvi yoki elektr energiyasidan oqilona foydalanish mavzusi o'tilganda o'qituvchi o'rganilayotgan tilning mavzuga aloqador nafaqat yangi lug'atidan, balki xorijiy tildagi grammatik mavzular, ya'ni oddiy hozirgi zamон yoki turli gap bo'laklaridan ham foydalanadi.

CLIL metodologiyasining ahamiyati shundan iboratki, talabalar fanni o'rganish uchun tildan foydalanadilar va, keyinchalik, tildan foydalanish uchun o'rganmaydilar. Demak, fan va til integratsiyalashgan ta'lism to'rtta komponentga asoslanadi: mazmun, ya'ni fanning o'zi; kommunikatsiya; kognitiv qobiliyat, ya'ni fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish orqali ta'lism jarayonining borishi; madaniy komponent, u orqali ona vatan va madaniyatga muhabbat tuyg'usi, shuningdek, bu tuyg'ularning ahamiyati va boshqa madaniyatlar bilan o'zaro munosabati haqida tushuncha paydo bo'ladi.

Bu sohadagi tadqiqotchilar O.N.Burdakova, A.A.Jamaylova va N.P.Raud uch xil ta'lism modeli mavjudligini ta'kidlaydilar:

- 1) fan va tilni integratsiyalashgan holda o'qitish;
- 2) ko'p tillik ta'lism;